

TERMIN VA TERMINOLOGIYAGA OID TADQIQOTLAR

Kholmatova Diyora Bakhromjonovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

E-mail: abduholiqovadiyora18@gmail.com

Supervisor: **Sharipova Dilnoza**

Annotatsiya. Terminlar va ularning tuzilishi, shakllanishi hamda qo'llanilishi ilmiy tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Ushbu maqola termin va terminologiyaga oid asosiy tushunchalarni o'rganish, zamonaviy tadqiqot yo'nalishlarini tahlil qilish va soha amaliyotiga oid xulosalarni shakllantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, maqolada terminlarning ilmiy va amaliy ahamiyati alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, standartlashtirish, lingvistika, ilmiy til.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность терминоведения, формирование терминологии и современные направления исследований. Освещается значение терминов в научной и практической деятельности, а также вопросы их стандартизации.

Ключевые слова: терминоведение, терминология, научный язык, лингвистика, стандартизация.

Annotation. This article explores the key concepts related to terms and terminology, examines modern research directions in this field, and provides conclusions relevant to practical applications. Special attention is given to the scientific and practical significance of terms across various domains.

Keywords: linguistic standardization, terminology, scientific communication, scientific, practical.

Kirish. Terminologiya va termin deyarli barcha sohalarda o'zaro muloqotning asosiy vositasi hisoblanadi. Terminlarning to'g'ri va izchil qo'llanilishi ilmiy va akademik bilimlarni yetkazish va yangi tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola terminlarning ilmiy va amaliy mazmunini aniqlash, zamonaviy tadqiqot tamoyillarini tahlil qilish va terminologiya sohasidagi dolzarb masalalarni ko'rib chiqishga qaratilgan. Bugungi ijtimoiy hayotning rivojlanishi tilning rivojlanishiga hamisha turtki bo'lib, bu termin rivojlanishida yetakchi qonuniyatlardan biridir. Til leksikasi doim harakatda, o'zgarishda. Yangi so'z hayotning talabi bilan tug'iladi yokida aksincha tildagi mavjud so'zlar asta sekin muomaladan chiqib ketadi va eskirgan so'zlar qatoriga kiradi. Bu vaziyat, ayniqsa, terminologiyada yaqqol ko'zga tashlanadi. Hozirgi kunda „termin“ bilan bir qatorda „atama“ so'zi ham ishlatiladi, lekin „atama“ „termin“ga nisbatan passiv hisoblanadi, termin so'zini to'liq ifoda eta olmaydi. Termin atamaga nisbatan torroq tushuncha hisoblanadi.¹ Aniqroq aytadigan bo'lsak, termini bugungi kunda ilmiy kontekstlarda qo'llab boryabmiz. Lekin termini faqat leksik sathda tekshirish yetarli emas, chunki termin ham keng ma'noda lug'aviy birlik hisoblanadi, deb o'ylaymiz. U leksik va grammatik jihatdan o'rganilishi zarur.

Metod. Tilshunoslikda termin va terminologiyaning akademik asoslari bir qancha olimlar tomonidan o'rganib borilmoqda. Jumladan, D.S. Lotte [1] terminologiya bo'limida tizimlilik va aniqlik tamoyillarini asosladi va terminlar tushunchalar tizimiga bog'liq holda shakllanishini aytib o'tgan. E. Wüster [2] bugungi zamonaviy

tilshunoslikda terminologiya nazariyasining asoschisi sifatida terminlarning standart holatga keltirishi va davlatlararo ilmiy munosabatda yagona qo'llanishi muhimligini uqtirgan. V.V.Vinogradov [3] esa leksik birlik sifatida terminlarning xususiyatlarini aniqlab chiqib, ularning neytrallik, aniqlik va barqarorlik kabi belgilarini alohida ajratib aytib o'tgan. Ushbu akademik qarashlar terminologiya ilmining nafaqat tilshunoslik, balki boshqa (texnika, tibbiyot, iqtisod, axborot texnologiyalari) ko'plab sohalarda qo'llanishi zarurligini qayd etgan.

Natija. Mutaxassis olimlar terminga quyida berilgan asosiy omillarni qo'yadilar:

1. Aniqlik- bu termin faqat yagona ilmiy, akademik tushunchani ifodalab berishi kerak.
2. Bir ma'nolilik esa noaniqlik va ko'pma'nolilikka qarshi turadi
3. Tizimlilik- terminlar o'zaro bog'langan tushunchalar tizimi asosida shakllanishi kerak.
4. Barqarorlik- termin ma'lum vaqt davomida o'zgarmay qo'llanishi zarur.
5. Qisqalik va lo'ndalik - ortiqcha so'zlarsiz bo'lishi lozim.

Ushbu xususiyatlar terminologiya faniga albatta ta'siri bor ya'ni uning samarali shakllanishi va ilmiy muloqotda to'g'ri qo'llanishini ta'minlaydi.

Muhokama. Hozirgi zamonaviy davrimizda yangi ko'plab sohalar rivojlanib borayotgani sababli yangi terminlar yaratish ham muhim hisoblanadi. Bu jarayonda: milliy til imkoniyatlaridan foydalana olish, xalqaro terminlarni o'z vazifasida to'g'ri o'rgana olish, ularni ayni bitta standard asosida ishlata olish va qabul qilish, terminologiya fanining muhim va kerakli vazifalari bo'lib kelmoqda.

Yuqoridagi tahlillar orqali biz shuni ko'rishimiz mumkinki, zamonaviy tilshunoslikda termin hamda terminologiya asosiy va muhim vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda, ilmiy tafakkur va kasbiy muloqot uning asosiy poydevoridir. Yuqorida aytilganidek, terminlarning aniqligi, tizimliliigi va me'yorlashtirilganligi ilmiy axborot almashinuvida muhim o'rin kasb etadi. Shu sababli milliy terminologiya tizimini rivojlantirish, yangi terminlarni yaratishda ilmiy yondashuvlardan foydalanish va ularni me'yorlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Lotte D.S. Osnovy postroeniya nauchnotekhnicheskoy terminologii. Moskva, 1961.
2. Wüster E. Einführung in die Allgemeine Terminologielehre und Terminologische Lexikographie. Vienna, 1979.
3. Vinogradov V.V. Russkiy yazyk: Grammaticheskoe uchenie o slove. Moskva, 1947.
4. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. - Toshkent, Fan: 1985. B-13-18.
5. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam: John Benjamins, 1999.
6. Wüster E. Einführung in die Allgemeine Terminologielehre und Terminologische Lexikographie. Vienna, 1979.